
"BESHBOLA"DA HOKIM QABULI O'TKAZILDI VA "PROFILAKTIKA KUNI" MUNOSABATI BILAN SODIR ETILGAN JINOYATLAR TAHLIL QILINDI

Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov hal etilishi dolzarb bo'lgan muammolari bo'lgan 8 nafar fuqarolarni qabul qildi. Mas'ul rahbarlar ishtirokida o'rganilgan murojaatlarning uchtasi shu yerda ijobiy hal qilindi.

Kelib tushgan murojaatlarni uch kunlik muddatda o'rganib chiqish va natijasi bo'yicha mualliflarga ma'lum qilish uchun masalaga daxldor xodimlar, korxonalar, tashkilot va bo'limlarga tegishli topshiriqlar berildi.

Shundan so'ng, "Beshbola" mahalla fuqarolar yig'inida o'tgan davr mobaynida sodir etilgan jinoyatlar tahlil qilindi. Jinoyatlarni sodir etilishiga sabab bo'lgan omillar o'rganildi, shuningdek befarq bo'lgan rahbarlarga ogohlantirish berildi. Mahallada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, ishsiz fuqarolarning bandligi ta'minlash, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkillash bo'yicha mas'ullarga tavsiyalar berildi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-10-07 00:18:46